

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

D.T.Tursunova	
Ijtimoiy faollik tushunchasining mazmun-mohiyati va uning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari.....	244
Z.T.Aripov	
Bo'lajak o'qituvchilarni ijodiy o'z-o'zini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	247
N.O.Saidova	
Boshlang'ich maktabgacha yoshdagi bolalarda miqdoriy tushunchalarning o'ziga xos xususiyatlari.....	251
M.A.Abdubannobova	
O'zbekistonda inklyuziv ta'lim tizimi jarayoni va uning joriy etilishi.....	254
O.A.Ashurova	
Ekoestetik madaniyatni rivojlantirishning ilmiy-pedagogik ahamiyati.....	257
B.Latipov	
Ta'lim va tarbiya sifatini oshirishda hamkorlik konsepsiyasining roli.....	261
T.Y.Bakirov, R.M.Mamatqulov	
O'quvchilar bilim va ko'nikmalarini baholashda dasturiy ilovalardan foydalanish samaradorligi.....	265
V.T.Jo'rayev	
Oliy ta'lim massasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalarning o'rni.....	269
Z.M.Xursanova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari.....	274
M.A.Jalilov	
O'yin texnologiyalari-bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirish vositasi sifatida.....	279
Z.X.Siddiqov	
Talabalar matematik kompetentligini rivojlantirishda noan'anaviy ta'lim yondashuvlar.....	283
M.G'.Zaylobidinova	
Nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning ta'limni modernizatsiyalash orqali hayotiy ko'nikmalarini oshirish.....	287
Г.П.Наркабилова	
Влияние на формирование профессиональных компетенций будущих педагогов и интеграция в образовательную практику.....	291
M.Sh.Dehqonova	
Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik loyihalash ko'nikmalarini shakllantirishning turli bosqichlari.....	295
N.Q.Olimova	
Xalq og'zaki ijodi vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuzi va nutqini o'stirish metodikasini takomillashtirish.....	299
D.T.Rustamova	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar nutqida ma'nodosh so'zlarni faollashtirish modelini takomillashtirish.....	304
Y.U.Egamberdiyeva	
Boshlang'ich sinf o'qituvchisiining kreativlik sifatlarini rivojlantirish.....	309
U.Y.Axmedova	
Texnologik ta'lim asosida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda algoritm tushunchasini shakllantirish.....	313
M.U.Buvajonova	
Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida lug'at ustida ishlash metodikasi.....	317
M.A.Mamasaidova, S.Sobirova	
Matematikaga oid misol va masalalarni yechishda matematik tafakkurning muhim roli.....	321
M.A.G'ofurova	
Boshlang'ich sinfda o'quvchilarning matematikaga oid mantiqiy mushohada yuritish faoliyatini rivojlantirish.....	325
D.M.Gazieva	
Psychological and pedagogical aspects of media use in education.....	331



UO'K: 372.62:371.3

BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA LUG'AT USTIDA ISHLASH METODIKASI**МЕТОДИКА РАБОТЫ СО СЛОВАРЕМ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА И ЧИТАТЕЛЬСКОЙ ГРАМОТНОСТИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ****METHODOLOGY OF WORKING WITH VOCABULARY IN PRIMARY SCHOOL NATIVE LANGUAGE AND READING LITERACY LESSONS****Buvajonova Mohiraxon Usmonali qizi**

Farg'ona davlat universiteti boshlang'ich ta'lim uslubiyoti kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida lug'at ustida ishlash o'quvchilar nutqini o'stirishga, savodxonligini shakllantirishga, so'z boyligini boyitishga, nutq madaniyatini yuksaltirishga qaratilganligi hamda bexato yozish ko'nikmasiga ega bo'lishida lug'atlardan foydalanishning ahamiyati haqida bayon etilgan. O'quvchilar nutqini o'stirish, avvalo, ularning lug'atini boyitish bilan bog'liqdir. So'z boyligini oshirishda lug'at ustida ishlash katta amaliy ahamiyatga ega. O'rganilayotgan matn yuzasidan lug'at ishi o'tkazish jarayonida o'quvchilar tilning lug'at tarkibiga xos bo'lgan eskirgan so'zlar, yangi paydo bo'lgan so'zlar, kasb-hunarga oid so'zlar, shevaga xos so'zlar, badiiy uslubga xos so'zlar bilan amaliy jihatdan tanishib boradilar. Lug'at ustida ishlash onat tili darslarida ham, o'qish darslarida ham reja asosida izchil olib borilishi lozim. Umuman olganda, boshlang'ich sinf o'quvchilariga tilning lug'at tarkibini o'rgatib borish ularning so'z boyligini oshiradi, nutq madaniyatini yuksaltiradi, milliy tilimizning buyuk qudratini, sehri va jozibasini to'la his etgan insonlar bo'lib yetishishini ta'minlaydi.

Аннотация

В данной статье рассматриваются методы работы со словарём на уроках родного языка и читательской грамотности в начальных классах, направленные на развитие речи учащихся, формирование грамотности, обогащение словарного запаса, повышение культуры речи и приобретение навыков безошибочного письма с использованием словарей. Развитие речи учащихся связано, прежде всего, с обогащением их словарного запаса. Работа над словарным запасом имеет большое практическое значение в увеличении словарного запаса. В процессе проведения словарной работы над изучаемым текстом учащиеся изучают старые слова, новые слова, слова, относящиеся к профессиям, слова, характерные для диалекта, характерные для лексики языка, с которыми они знакомятся, слова, характерные для художественного языка, стиль на практике. Словарная работа должна проводиться последовательно как на занятиях родным языком, так и на занятиях по чтению. В целом обучение учащихся младших классов словарному запасу языка увеличит их словарный запас, улучшит культуру речи, сделает их людьми, в полной мере ощущающими великую силу, волшебство и очарование нашего национального языка.

Abstract

This article discusses the methodology of working with vocabulary in primary school native language and reading literacy lessons aimed at enhancing students' speech development, shaping literacy, enriching vocabulary, elevating speech culture, and acquiring flawless writing skills through the use of dictionaries. Developing students' speech is primarily related to enriching their vocabulary. Working on vocabulary is of great practical importance in increasing vocabulary. In the process of conducting vocabulary work on the studied text, students will learn old words, new words, words related to professions, words specific to the dialect, typical of the vocabulary of the language. they get acquainted with the words specific to the artistic style in a practical way. Vocabulary work should be carried out consistently both in native language classes and in reading classes. In general, teaching elementary school students the vocabulary of the language will increase their vocabulary, improve their speech culture, and make them become people who fully feel the great power, magic and charm of our national language provides.

Kalit so'zlar: ona tili va o'qish savodxonligi, og'zaki nutq, yozma nutq, lug'atshunoslik, lug'at, imlo lug'at, izohli lug'at, so'z boylik, nutq o'stirish, bog'lanishli nutq, nutq madaniyati, ko'nikma, imlo malakasi.

Ключевые слова: родной язык и грамотность чтения, говорение, письмо, лексикология, словарь, орфографический словарь, толковый словарь, словарный запас, развитие речи, садовая разговорная речь, культура речи, навыки, орфографические навыки.

Key words: mother tongue and reading literacy, speaking, writing, lexicology, dictionary, spelling dictionary, explanatory dictionary, vocabulary, speech development, colloquial speech, speech culture, skills, spelling skills.

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimiz yangi taraqqiyot yo'lidan borar ekan, unda ta'lim-tarbiya ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Boshlang'ich ta'lim yurtimiz kelajagini buyuk davlat darajasiga ko'taradigan ijodkor shaxsni shakllantirishda mustahkam poydevor rolini o'ynaydi. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berishdagi muhim vazifalarning asosiy qismi o'qish va ona tili darslarida amalga oshiriladi. Hozirgi kunda o'zbek tilining o'quv lug'atlari ona tili ta'limida muhim ahamiyat kasb etmoqda, ularni tuzish esa leksikografiyaning alohida tarmog'iga aylanmoqda. Buning sababi shuki, lug'at til va olamning dunyoqarash bilan bog'liq manzarasi haqidagi bilimlarni umumlashtirish va qayd qilishning eng qulay shakli bo'libgina qolmay ta'lim berishning eng muhim vositasi hamdir. Modomiki o'quvchilarning so'z boyligini oshirish ona tili mashg'ulotlarining asosiy vazifasi ekan, ularni turli lug'atlar bilan tanishtirish va bu lug'atlardan foydalanish malakalarini shakllantirish muhim masala hisoblanadi. Lug'at imlo savodxonligini oshirish, so'z boyligini oshirishning muhim manbai, o'quvchining asosiy maslahatchisidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik" nomli asarida: "Agar katta avlodning bilimi va tajribasini, uzoqni ko'ra olish fazilatlarini yoshlarimizdagi g'ayrat - shijoat, mardlik va fidoyilik bilan birlashtira olsak ko'zlangan maqsadga albatta yetamiz" - degan fikrlarni aytib o'tgan. Shu boisdan yurtimizda ta'lim tizimi bo'yicha juda ko'p yangi o'zgarishlar qilinmoqda. Yoshlarimizning bilim olishi uchun keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimi o'rganilib, ularni mamlakatimizda tatbiq etib kelinmoqda. Xususan, Finlandiya ta'lim tizimini bunga misol qilib ko'rsatishimiz mumkin. Bunda asosiy e'tibor o'quvchilarning fikrlashiga qaratilgan bo'lib, uni rivojlantirishda lug'atlarning ahamiyati kattadir. Tildagi jamiki so'zlar, ularning tarixi, izohi, imlosi kabi muhim masalalar bilan lug'atshunoslik fani shug'ullanadi. Lug'atlar qadimdan yaratilib kelingan bo'lib, bunga misol qilib Mahmud Qoshg'ariy tomonidan XI asrda yaratilgan "Devoni lug'atit- turk", XVI asrda Usmonli turk tilida yaratilgan "Abushqa" lug'atlarini olishimiz mumkin. O'quvchilar tabiat va insonlar bilan og'zaki muloqotda bo'lishi bilan so'z, ibora, tasviriy ifoda, maqol, hikmatli so'zlarni o'rganadi, ularni o'z so'zlariga aylantiradi va o'z nutqida qo'llaydi. Bundan tashqari ta'lim jaroyonlarida ham o'quvchilar har bir darsda shu fanga mos ko'plab atama va terminlarni o'rgana boradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Keyingi yillarda ona tili ta'limi sohasida adabiy tilning boy imkoniyatlaridan keng foydalangan holda o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini to'g'ri, savodli qilib shakllantirishga e'tibor kuchaydi. Boshlang'ich ta'limda lug'at ustida ishlashning umumiy yo'l-yo'riqlari, yo'nalishlari, manbalari haqida metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan bo'lsa-da, ularni hali qoniqarli ahvolda deb bo'lmaydi. Lug'at ustida ishlash uchun maxsus dars ajratilmaydi. U barcha predmetlarni o'rganishda, asosan, ona tili va o'qish darslarida darslik materiallarini o'rgatish bilan bog'liq holda olib boriladi. O'qish va ona tili darslarida lug'at ustida ishlash o'quvchilar nutqini o'stirishga, savodxonligini shakllantirishga, so'z boyligini boyitishga, nutq madaniyatini yuksaltirishga qaratilganligi sababli bu ish maktablarda 1-sinfdan boshlanadi va butun o'quv jarayonida davom ettiriladi.

Lingvistika fani jamiyat taraqqiyotining, gullab-yashnashining eng muhim, eng asosiy, tengi yo'q mezonlaridan biri til – aloqa quroli ekanligini tasdiqlash va isbotlash uchun xizmat qiladi. Shuningdek, u ta'lim oluvchiga ona tili imkoniyatlarini ayni bir fikrni, narsa-hodisani yuzlab usullar bilan ifodalash yo'llarini yetkazish bilan unda ijodiy tafakkurni rivojlantirishga, ona tilida fikrlash va ona tili qurilishining o'ziga xosligi, boshqa tillardan tubdan farq qilishi, olamni "o'zicha" aks ettirishni singdirish bilan milliy ong, milliy dunyoqarash, milliy g'urur va mafkurani shakllantirishda mustahkam poydevor vazifasini o'taydi. Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi ta'limining bosh vazifasi o'quvchilar nutqini o'stirish va uni bosqichma bosqich rivojlantirib borish hisoblanadi. O'quvchilarni o'z fikrlarini erkin, to'g'ri ifodalashga o'rgatish jamiyat uchun ham, psixologik va metodik jihatdan ham juda muhim bo'lishi bilan bir qatorda ularni xatosiz yozish ko'nikmalariga ega qilish hozirgi kunning dolzarb masalasi bo'lib kelmoqda.

Maktabda lug'at ustida ishlash metodikasi to'rt asosiy yo'nalishni ko'zda tutadi:

PEDAGOGIKA

1. O'quvchilar lug'atini boyitish, ya'ni yangi so'zlarni, shuningdek, bolalar lug'atida bo'lgan ayrim so'zlarning yangi ma'nolarini o'zlashtirish. Ona tilning lug'at boyligini bilib olish uchun o'quvchi o'z lug'atiga har kuni 8—10 ta yangi so'zni, shu jumladan, ona tili darolarida 4—6 so'zni qo'shishi, ya'ni shu so'zlar ma'nosini o'zlashtirishi lozim.

2. O'quvchilar lug'atiga aniqlik kiritish. Bu o'z ichiga quyidagilarni oladi: 1) o'quvchi puxta o'zlashtirmagan so'zlarning ma'nosini to'liq o'zlashtirish, ya'ni shu so'zlarni matnga kiritish, ma'nosi yaqin so'zlarga qiyoslash, antonim tanlash yo'llari bilan ularning ma'nosiga aniqlik kiritish; 2) so'zning kinoyali ma'nosini, ko'p ma'noli so'zlarni o'zlashtirish; 3) so'zlarning sinonimlarini, sinonim so'zlarning ma'no qirralarini o'zlashtirish; 4) ayrim frazeologik birliklarning ma'nosini o'zlashtirish.

3. Lug'atni faollashtirish, ya'ni o'quvchilar ma'nosini tushunadigan, ammo o'z nutq faoliyatida ishlatmaydigan nafaol lug'atidagi so'zlarni faol lug'atiga o'tkazish. Buning uchun shu so'zlar ishtirokida so'z birikmasi va gaplar tuziladi, ular o'qiganlarni qayta hikoyalash, suhbat, bayon va inshoda ishlatiladi.

4. Adabiy tilda ishlatilmaydigan so'zlarni o'quvchilar faol lug'atidan nafaol lug'atiga o'tkazish. Bunday so'zlarga bolalarning nutq muhiti ta'sirida o'zlashib qolgan adabiy til me'yoriga kirmaydigan, ayrim adabiy asar va so'zlashuv tilida qo'llanadigan sodda so'z va iboralar, sheva va ijtimoiy guruhga oid so'zlar kiradi. Adabiy til me'yori degan tushunchani o'zlashtirgach, o'quvchilar yuqorida izohlangan so'zlar o'rniga adabiy tildagi so'zlardan foydalana boshlaydilar. Adabiy tilga oid malakalari mustahkamlangan sayin shevaga, jargonga oid so'zlar, so'zlashuv tilida ishlatiladigan sodda so'z va iboralar o'quvchilarning faol lug'atidan chiqib keta boshlaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi og'zaki va yozma nutqni takomillashtirishda bir qator lug'atlardan ham foydalaniladi. Bular imlo va izohli lug'atlaridir. Adabiy til yozma shaklining me'yorlashuvi va takomilida, shuningdek, og'zaki hamda yozma nutq orasidagi bog'liqlik va yaqinlikni mustahkamlashda imlo lug'atlari muhim rol o'ynaydi. Imlo lug'atlari nafaqat so'zlarning yozma shakli, balki og'zaki talaffuz shaklining ham me'yorlashuvi va uning muayyan turg'un, adabiy holatda bo'lishiga xizmat qiladi, chunki aksariyat so'zlar yozma shaklga asoslangan holda talaffuz qilinadi. Imlo lug'ati tilning lug'aviy boyligini o'zida jamlovchi va saqlovchi ishonchli manba hamdir. Chunki u boshqa tip lug'atlarga kiritilmaydigan ba'zi so'z va so'z shakllarni ham qamrab oladi. Imlo lug'atlari yozma nutq madaniyatining, imloviy savodxonlikning muhim qurolidir.

Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsligida imloga katta e'tibor qaratilgan bo'lib, har bir mavzuda matnlar ichida ajratib ko'rsatilgan so'zlar berilgan. Bu so'zlarning ham yozilishiga ham ma'nosiga e'tibor berilishi zarurdir. Misol uchun 1-sinf darsligida quyidagi so'zlar berilgan: Sustqadam, nozikta'b, organizm, qapishish, axloq, bakteriya. Har bir darsda yozilishi bir muncha murakkab bo'lgan so'zlar o'quvchilarga o'rgatilib, ular imlo lug'atdan topilib, o'quvchilar daftarlariga yozdiriladi. Ayniqsa, x va h tovushlarini farqlashda o'quvchilar bir muncha qiyinchiliklarga duch keladi. Buni yengishning oson yo'llaridan biri imlo lug'atlaridan foydalanishdir.

Izohli lug'atlarda esa so'zning bosh va ko'chma ma'nolari izohi beriladi, so'zning ma'nolari tushuntiriladi. Barcha boshlang'ich sinflar ona tili va o'qish savodxonligi darsliklarining so'ngida izohli lug'atlardan namunalar keltirilib o'tilgan:

Kislrod – biz nafas oladigan toza havo tarkibidagi modda, ko'zga ko'rinmaydi.

Ko'lmak – chuqur joyga to'planib qolgan suv.

Kunbotar – quyoshning botish vaqti (tomoni).

Laqab – biror kishiga hazil qilib yoki masxaralab berilgan qo'shimcha nom yoki hayvonlarga qo'yilgan nom.

Maktabda nutq o'stirishning muhim vazifalaridan biri lug'at ustida ishlashni yaxshilash, tartibga solish, uning asosiy yo'nalishlarini ajratish va asoslash, o'quvchilarning lug'atini boyitish jarayonini boshqarish hisoblanadi. O'quvchilar izohli lug'atlar orqali yangi so'zlarni o'rganib, so'ngra bu so'zlarni o'z nutqida ishlata boshlashadi. Bir yangi so'zni izohlash uchun bir qancha so'z birikmalaridan foydalanilganligi sababli, o'quvchilarda yanada so'z boyligini oshirish imkoniyati mavjud bo'ladi. O'quvchilar lug'ati quyidagi manbalar asosida boyitiladi va takomillashtiriladi: Atrof-muhitni: tabiatni, kishilarning hayoti va mehnat faoliyati, bolalarning o'yini va o'qish faoliyatini, kattalar bilan munosabatni kuzatish. Tabiat qo'yniga, turli joylarga, muassasalarga ekskursiya vaqtida bolalar narsa va hodisalarni kuzatish bilan ko'pgina yangi nom va iboralarni o'rganadilar. Bu ekskursiyalar yuzasidan o'tkazilgan suhbat vaqtida ularning bilimi chuqurlashtiriladi, ayrim so'zlar ma'nosiga aniqlik kiritiladi.

XULOSA

Shunday qilib, lug'atlarni o'quvchiga ta'lim berishgina emas, balki tarbiya berish vositasi ham deb hisoblash mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchisida u yoki bu lug'atga (muammoga bog'liq ravishda) murojaat qilish odat tusiga kirsa, lingvistik masalalarni o'z oldiga qo'yib, ularga ongli ravishda javob topishga tayyor bo'lgan va bu ishni qila oladigan madaniyatli odamni tarbiyalashga asos yaratildi deb hisoblash mumkin. Bolalar mustaqil o'qishga o'rganganlaridan keyin ular lug'atiga kitob, gazeta, jurnal materiallari katta ta'sir qiladi. Shuning uchun ham sinfdan tashqari mustaqil o'qish va unga rahbarlik shakllari o'quvchilar lug'atini boyitishning, nutqini o'stirishning eng muhim manbalaridan hisoblanadi. Maxsus mashqlar yordamida grammatika va imloni o'rganish darslari ko'pgina so'z va atamalarni o'zlashtirishga yordam beradi, o'quvchilar predmet, belgi, harakat, sanoq, tartib ifodalaydigan so'zlarni bilib oladilar. Bu darslarda o'quvchilar lug'ati tartibga solinadi, so'z turkumlarini o'rganish jarayonida guruhlanadi, so'z tarkibi, so'z yasalishi, so'zlarning o'zgarishini o'rganish bilan esa lug'atga aniqlik kiritiladi; ular o'rgangan so'zlaridan o'z nutqlarida foydalana boshlaydilar, natijada lug'atlari faollashadi. O'quvchilar lug'ati maxsus lug'aviy-mantiqiy mashqlar yordamida ham boyiydi, tartibga tushadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sh.M.Mirziyoyev "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik" -Toshkent. 2021-yil, 12-bet.
2. A.Madvaliyev, E.Begmatov "O'zbek tilining imlo lug'ati" .-Toshkent: Akademnashr, 2012.
3. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Qur'onov, Shokir Tursun "Ona tili va o'qish savodxonligi (1-qism)" 1-sinf uchun darslik, - Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021-yil, 102-103-betlar.
4. Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G'ulomova, Sharofat Yo'ldosheva, Sharofjon Sariyev "Ona tili o'qitish metodikasi" Darslik Toshkent «NOSIR» nashriyoti 2009, 309-bet.
5. Юлдашева, Д. & Буважонова, М. (2019). БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМДА ПРАГМАТИК ЁНДАШУВ АСОСИДА МАТН ЎҚИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(12), 338-340.
6. Qizi, Sodiqova Mohlaroyim Shavkatjon, and Buvajonova Mohirakhon Usmonali Qizi. "Dictionary in teaching vocabulary composition of language to junior school age students ways to work." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11:10 (2021): 1869-1872.
7. Qosimova K. Boshlang'ich sinqlarda ona tili o'qitish metodikasi. - Toshkent,1985.
8. Qizi B. M. U. Formation of Lexicographic Competence of Junior Students //European Multidisciplinary Journal of Modern Science. – 2022. – T. 6. – C. 138-143.
9. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli / A. Madvaliyev tahriri ostida. - Toshkent:O'zb. mil. ens., 2006-2008.
10. Akmaljonovna A. Z. and M.U.Buvajonova The Role of the Internet and Modern Electronic Dictionaries in Increasing the Lexicographic Competence of Primary School Students //International Journal of Culture and Modernity. – 2022. – T. 17. – C. 1-6.
11. G'ulomov A. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. — T.: „O'qituvchi"